

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Abduxalimov	
Andijon viloyatida sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatidan.....	213
F.K.Yusupjanova	
Turli tizimli tillarda "head/bosh/ голова" somatik komponenti bilan makallarning qiyosiy-tipologik o'rGANISH	217
F.M.Mamadjanov	
Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari	227
M.Komilova	
Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'limga jalb qilish	233
A.A.Abduxalimov	
Namangan viloyatidagi shifoxonalar faoliyati va ularning moddiy-texnik holati.....	239
I.R.Asqarov, M.M.Akbarova, Z.A.Smanova	
Portulaca oleracea o'simligining kimyoiy xossalari	242
S.M.Isroilova	
Muloqot qilish rus tilini oqitish jarayonoda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish.....	249
Sh.V.Djalolov	
Umumta'lim maktab tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va organizmning funksional holatining manoringi	253
A.A.Qambarov	
Marg'ilonlik katta ashula darg'alari	260
D.T.Samatov	
Falsafa fanini o'qitishda multimedaviy storitellingdan foydalanishning samaradorligi	265
A.U.Azimov	
Yuksak axloqiy yoshlarni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining o'rni	269
A.A.Ahrorqulov	
Oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurash	275
D.A.Mamajonova	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiya va korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchalari	279
M.M.Mamadaliyeva	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavflar tahlili	282
U.O'.Musoyev	
Buxoro xonligida yer egaligi munosabatlari va ularning xududiy tavsifi	286
D.Y.Tashnazarov	
Yunon-rum kurashchilarini texnik usullarga o'rgatishda umumiylar va maxsus tayyorgarligi	291
M.M.Alimova	
Ikkinchi jahon urushi arafasida mehnat intizomi (Buxoro viloyati)	299
R.Sh.Bozorova	
Gidropoetonimlarning onomastik birliklar tizimidagi o'rni	303
E.X.Zoirov	
Ya'qubi Charxiyning "Tafsiri" da pir-murshid tushunchasi	307
A.S.Inomov	
Ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar strategiyasi	311
I.S.Aslonov	
O'zbekistonning mustamlakachilik davrida savdo va transport yo'llari tarixi	316
B.M.Jo'raquziev	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy siyosat masalalari	320
O.Radjabov	
Qirg'izistonda temir yo'llar tarixi	324
Y.Shukurillaev	
Sho'ro Rossiysi tomonidan Buxoro amirligining bosib olinishi jarayonida to'plagan razvedka ma'lumotlari tahlili	330
M.M.Mamatkodirov	
Maktablarda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini yaratish uchun asosiy tizimli komponentlar	333
M.Sh.Qoraboeva	
Islom falsafasida intellektual faoliyat mezonlariga doir qarashlar tahlili	338

BUXORO XONLIGIDA YER EGALIGI MUNOSABATLARI VA ULARNING XUDUDIY TAVSIFI

ЗЕМЕЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ИХ ТЕРРИТОРИАЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА В БУХАРСКОМ ХАНСТВЕ

LAND OWNERSHIP RELATIONS AND THEIR TERRITORIAL DESCRIPTION IN BUKHARA KHANATE

Musoyev Umirzoq O'rroqboyevich¹

1Musoyev Umirzoq O'rroqboyevich

– O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Shayboniyxon markazlashgan davlat tuzish jarayonida ishlab chiqarishga, xususan qishloq xo'jaligiga alohida e'tibor bergani, lalmikor yerlarda ariqlar qazdirib, dehqonchilikda donli ekinlar, paxta, zig'ir ekilganligi. Bo'yog uchun ro'yan o'simligi, shuningdek pillachilikda tutlar ko'p ekilganligi. Uzum, limon shuningdek Obodonchilik, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi iqtisodiy hayotda muhim soha-hunarmadchilik, savdo va tovar-pul munosabatlarining taraqqiyotiga ijobjiy ta'sir ko'rsatganligi, hunarmandchilik tarmoqlarining ko'payishi tufayli shaharlarda hunarmandchilik mahallalarining soni ortib, yangi bozor rastalari, tim va toqlar qurilgani manbalar asosida yoritib beriladi.

Annotatsiya

В этой статье Шайбанихан уделял особое внимание производству, в частности сельскому хозяйству, в процессе создания централизованного государства и засевал в земледелии зерновые культуры, хлопок и лен, копая рвы в засушливых землях. Роянское растение для окрашивания, а также шелковица для коконирования. На основе источников поясняется, что развитие винограда, лимонов и орошаемого земледелия положительно сказалось на развитии торговли и товарно-денежных отношений, важной отрасли экономической жизни, в городах увеличилось количество ремесленных районов. в связи с ростом ремесленного производства и были построены новые рыночные прилавки, тим и прилавки.

Abstract

In this article, Shaibani Khan paid special attention to production, particularly to agriculture, in the process of creating a centralized state, and planted grain crops, cotton, and flax in agriculture by digging ditches in arid lands. Royan plant for dyeing, as well as mulberry for cocooning. It is explained based on the sources that the development of grapes, lemons and irrigated farming has had a positive effect on the development of trade and commodity-money relations, an important sector in economic life, and the number of craft districts has increased in cities due to the increase of craft industries, and new market stalls, tim and stalls have been built.

Kalit so'zlar: Shayboniylar, Yer egaligi, savdo, Hofiz Tanish Buxoriy, Muhammad Amin Buxoriy, Buxoro, Buyuk Ipak yo'lli, pud, kanop, mulki ushr, mulki xuri xolis, mulki xiroj.

Ключевые слова: Шайбани, землевладение, торговля, Хафиз Таниш Бухари, Мухаммад Амин Бухари, Бухара, Великий шелковый путь, пуд, конопля, имущество, десятина, имущество Хури Халис, имущество Хирож.

Key words: Shaibani, Land ownership, trade, Hafiz Tanish Bukhari, Muhammad Amin Bukhari, Bukhara, Great Silk Road, pud, hemp, property Khuri Khalis, property Khiroj.

KIRISH

Buxoro xonligi davri O'rta Osiyo tarixida alohida davr hisoblangan bu davr xususan, O'zbekiston tarixining bugungi huquqiy joylashuvida asos bo'lib xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, Buxoro xonligida yerga egalik qilish, undan foydalanish, umuman yer-huquqiy munosabatlar shariat normalariga asoslanib tartibga solingan. Yerga egalik qilish, undan foydalanishga ruxsat berish davlat boshlig'i xon ixtiyorida bo'lib, bekliklarda ushbu vakolatni viloyat hokimlari beklar amalga oshirganlar.

Shu bilan bir qatorda, yerga nisbatan davlatning egaligi va uning davlat boshlig'i tomonidan taqsimlanishi, o'z navbatida, yerga nisbatan xususiy yer egaligi va undan xususiy foydalanishni inkor etmagan. Buxoro xonligida yerga nisbatan mulkchilikning huquqiy holatiga qarab quyidagi shakllarini ko'rsatib o'tish mumkin: davlat yerlari, shaxsan xonga tegishli bo'lgan yerlar; mulk yerlari; vaqf yerlari; jamaa yerlari.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Buxoro xonligida yer egaligi munosabatlari va ularning hududiy tavsifi, shuningdek, O'rta Osiyo xalqlarining XVI asrning boshi XIX asrning birinchi yarmi tarixiga oid ko'pdan ko'p yozma manbalar bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan. Ular avvalo, mahalliy tarixnavislik maktablari vakillarining asarlari, qolaversa O'rta Osiyoga tashrif buyurgan elchilar, sayyohlar, zabitlarning ma'lumotlaridan iborat. Ushbu manbalar yuqorida davr tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy va xo'jalik-madaniy hayat hamda siyosiy jarayonlar haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Ushbu manbalarni tahlil qilar ekanmiz, mavzuga oid tadqiqotlarni yaratilish davriga ko'ra to'rt guruhga bo'lish mumkin:

- Mahalliy tarixchilar tomonidan yaratilgan asarlar(manbalar)
- Sovet davrida yaratilgan adabiyyotlar
- Mustaqillik davrida yaratilgan adabiyyotlar
- Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan asarlar

Shuningdek ushbu mavzu yuzasidan Mustaqil O'zbekistonda bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar orasiga Azamat Ziyo, R.G. Mukminova, T. Fayziev va boshqa tarixchi olimlar tomonidan yaratilgan asarlarni kiritishimiz mumkin. Shuningdek, maqolani yoritish davomida internet ma'lumotlaridan hamda tarixiy asarlar: Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanova" va Mir Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanova" asarlaridan foydalanildi. Buxoro xonligi yaratgan madaniyat hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ayniqsa, Shayboniyxon va Abdullaxon II davrida amalga oshirilgan ko'p tarmoqli islohotlar o'z samarasini to'laqonli ifoda etadi. O'sha davrning eng yirik savdo yo'li bo'lgan "Buyuk Ipak yo'li"ning taraqqiyotiga Buxoro xonligi salmoqli hissa qo'shgan.Ularning harbiy, siyosiy, ijtimoiy sohadagi yutuqlari hali hanuz o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Vatanimiz tarixining bir bo'lagi hisoblangan Buxoro xonligi tarixini yanada chuqurroq o'rganish bugungi kun tarixchilari oldida turgan eng asosiy maqsadlardan biridir [1].

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Buxoro xonligida mulk yerlarining uch turi mavjud bo'lgan:

"mulki-xurri-xolis - mulk yerlarining eng mukammal shakli bo'lib, bu turdag'i yerlar barcha soliq va yig'implardan ozod etilgan;

mulki-xiroj - yer egalari tomonidan xiroj solig'i to'lanadigan yerga nisbatan mulk shakli;

mulki-ushr - ushr solig'i to'lanadigan yer turi. Bunda olingen hosilning o'ndan bir (1/10) qismi miqdorida soliq undirilgan".

Xonlikda vaqf yerlari Xiva va Qo'qon xonliklari kabi ruhoniylarning davlat va jamiyatdag'i rolini iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlagan. Mamlakatda vaqf mulklarining turli shakllari mavjud bo'lib, o'z yerini chegaralangan shartlarda vaqf mulkiga topshirgan shaxslarga bir vaqtning o'zida vaqf yeri uning manfaatiga xizmat qilish imkonini berardi. Yuqorida ta'kidlanganidek, yerlarning vaqfga aylanishi har xil shartlarda amalga oshirilgan. Masalan, ba'zi hollarda o'z mulkini vaqfga qo'ygan shaxs umrining oxirigacha ushbu mulkdan foydalanish huquqini saqlab qolishi mumkin edi. Ushbu mulkdan olinadigan daromadlar o'rnatilgan vaqf tartibi bo'yicha vaqfga topshiruvchi shaxsning vafotidan keyin amalga oshirilgan[2].

Vaqf mulklaridan olinadigan daromadlardan barcha madrasa, masjid, mozorlarning hamda maktablarda dars berayotgan o'qituvchilar, o'quvchi-mullavachchalar, imomlar hamda boshqaruvchi shaxslar mutavalliylarning ta'minotiga ketadigan xarajatlar qoplangan. Vaqf yerlari orasida "xususiy vaqflar" ("oilaviy vaqflar") alohida o'r'in tutgan. Buxoro xonligida bunday shakldagi vaqf mulklari vaqfi-avlod deb nom olgan. Vaqfi-avlod yerlari meros tariqasida o'z avlod-ajdodiga, ya'ni keyinchalik ham bir urug'ning a'zolariga meros tariqasida qolib keladigan yer toifasiga kirgan. Masalan, o'sha davrda Xo'ja Ahror Samarqand atrofidan ko'pgina yerlarga ega bo'lib, ushbu vaqf yerlaridan keladigan daromadlardan uning 500 dan ortiq urug' avlod foydalangan. Xo'ja Ahror boshqa hududlardan ham amlok yerlarini va fuqarolardan mulk yerlarini ham sotib olib, barcha yerlarni vaqf yerlariga vasiyat qilib qoldirgan .

Vaqfi-avlod mulklarini tashkil qilgan shaxslar o'z merosxo'rlariga vaqfdan keladigan daromadlarning u yoki bu qismiga masjid yoki madrasalar qurishni vasiyat qilib qoldirganlar. Vaqfi-avlod yerlari ham mulki-xurri-xois yerlari kabi barcha soliq va majburiy to'lovlardan ozod etilgan. Yirik vaqflarni tashkil etish uchun xonning maxsus ruxsatnomasi-muboraknomasi e'lon qilingan. Vaqfnii tashkil etuvchi shaxs muboraknomani olgandan so'ng vaqfnomani tuzib, xonning tasdig'iga kiritishi hamda uni guvohlantirish uchun qoziga taqdim etishi lozim edi. Buxoro xonligida mavjud bo'lgan yana bir yer turi jamoa yerlari bo'lib, bunday turdag'i yerlar alohida toifada mavjud

bo'lmasdan, umumiy xarakterdagi yerga egalik qilish shakli emas, balki yerdan foydalanish shakli sifatida qabul qilingan. Yerdan jamoa tarzida foydalanish amlok yerlarida hamda mulk yerlarida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan.

Buxoro xonligi hududida qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va yer unumdorligini oshirish maqsadida ariqlar, zovurlar qazilgan, daryo va irmoqlar qaytadan ta'mirlagan.

Ta'kidlash joizki, Buxoro xonligida yerga egalik qilish, undan foydalanish umuman yershhuquqiy munosabatlar shariat normalariga asoslanib tartibga solingenan. Yerga egalik qilish, undan foydalanishga ruxsat berish davlat boshlig'i xon ixtiyorida bo'lib,bekliklarda ushbu vakolatni viloyat hokimlari beklar amalga oshirganlar [3].

Shu bilan bir qatorda, yerga nisbatan davlatning egaligi va uning davlat boshlig'i tomonidan taqsimlanishi o'z navbatida, yerga nisbatan xususiy yer egaligi va undan xususiy foydalanishni inkor etmagan .

Buxoro xonligi aholisining asosiy mehnat mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilik hisoblangan. Xonlikning tekislikda yashovchi aholisi asosan dehqonchilik bilan shug'ullanib, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi esa o'zining qishki turargohi yaqinidagi yerkarta ishlov berib, ekin ekish bilan shug'ullanaganlar. Xonlik hududining ko'p joylari unumdon tuproqqa ega, dehqonchilik qilish uchun qulay bo'lgan yerdan iborat. Bu yerkarta yetarlicha ishlov berilgan taqdirda ulkan hosilni olish mumkin va hech qanday hosil isrofligiga yo'l qo'yilmaydi. Bunday holat yuz bergan taqdirda ham buning sababini sug'oriladigan yerkarta uchun suv yetishmasligi deb baholash mumkin bo'ladi.

Xonlikning katta hududidagi issiq va quruq havoning hukmronligi sun'iy sug'orish inshootlarini qurishni, o'z navbatida qiyin va og'ir sharoitlarda ham ishlay oladigan sug'orish inshootlarini qurishni talab qiladi. Hosil unumdorligini hisobga olgan holda, barcha maydonlarga xonakilashtirilgan ekinlar ekish, umumiy maydonni 10 foizi yetarli darajada suv bilan ta'minlanishini hisobga olib ularda hosil ikki marotaba ham olish mumkin. Xonlik hududidan oqib o'tuvchi barcha ochiq suv havzalari (Amudaryo, Surxon, Kofirnixon va Vaxsh)ning suvlari xonlik yerkartini sug'orish ishlariga oxirgi tomchisigacha sarflab yuborilgan. Faqatgina sanab o'tilgan daryolar suvlari katta va ulkan sug'orish inshootlari qurishni talab qiladi. Bunday inshootlar sug'orish qiyin bo'lgan amaldorlarning yerkartasi va alohida qishloqlar yaqinida sun'iy sug'orish ishlarini yaxshilash uchun qurilgan. Sug'oriladigan yerkarda bug'doy, sholi, beda, kunjut, sedana, paxta, tamaki (asosan Qarshi shahri atrofida), kanop va boshqa ekinlar ekilgan. Eng asosiy dehqonchilik mahsulotlaridan biri paxta bo'lib, uning hosildorligi 1,5 million pudgacha yetgan. Uning asosiy qismi Rossiya mamlakatiga chiqarilgan. Shuningdek, ayrim dala ekinlari, bahor va yoz faslining yuqori harorati tufayli tez pishib yetiladi. Shuningdek, tekisliklarda yoz faslining issiq iqlimi uzoq vaqt hukmronlik qilgani sababli, maydonlarga ikkinchi ekinni ekish maqsadga muvofiq va ekinlardan to sovuq tushgunigacha ikkinchi marta hosil olish mumkin. eng ko'p suv sarflanadigan sholi uchun asosan suv bilan uzuluksiz ta'minlanadigan yerkarta tanlanib, unga shu yerdagi barcha suv manbalari safarbar qilinadi. Shuningdek aholi ishlov beriladigan yerkardan tashqari 4-8 ming fut balandlikda lalmikor yerkarta ham ekin ekib, butun yoz davrida bu yerkartalar yomg'ir va qor suvlari bilan sug'oriladi. Bunday yerkarta odadta bug'doy va arpa ekilgan. XVI asrdan boshlab davlat yerkartini „tanho“ deb nom olgan shaklda in'om etish qaror topa borgan [4].

Surxon vohasi aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida Amudaryoning ahamiyati katta bo'lib, uning qirg'oqlari harbiy - strategik tayanch nuqtalari vazifasini ham o'tagan. Amudaryoning ikki qirg'og'ini bir - biri bilan bog'lovchi bir necha kechuvar bo'lib, ular har ikki tomon o'rtaida savdosotiq va madaniy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilgan. Amudaryoning boshlanish qismi (bu qismi Panj deb atalgan) dagi kechuvning nomi Kallan-Buxoro qishlog'i nomi bilan boshlanib, uning kengligi 60 sajen, tezligi sekundiga 12 futni tashkil etgan. Ushbu kechuv Afg'onistonning Fayzobod va G'arm tumanlari o'rtaisdagi yo'lda joylashgan bo'lib, bu yo'l orqali asosan savdo - sotiq mahsulotlari olib o'tilgan. Ikkinci kechuv Qal'ai Xulm shahri qarshisida joylashib, Ko'lob bilan Afgoniston o'rtaisdagi aloqa yo'li hisoblangan, kechuv eni 80 sajen, oqim tezligi esa sekundiga 11 futni tashkil etgan. Kechuvda gupsarli (meshli) kichik qayqlardan foydalanganlar [5]. Saroy kechuvini eni 400 sarjen, oqim tezligi sekundiga 8 fut bo'lgan. Bu kechuvdan Afg'onistonning Xonobod, Taliqon, Xo'ja Imom Saibon va Buxoro xonligining sharqiy hududlari bo'lgan Hisor va Qo'rg'ontepa

ILMIY AXBOROT

shaharlari o'rtasida savdo-sotiq ishlari olib borilgan. Muhim harbiy strategik ahamiyatga ega bo'lganligi tufayli Rossiya imperiyasi Saroy kechuvida harbiy chegara posti hamda bojxonani qurib, kechuvni o'z nazoratiga olgan. Fayzobod kechuvida ham chegara posti o'rnatilib, eni 1 chaqirim, oqim tezligi sekundiga 7 futni tashkil etgan [6]. Qishloqlar kechuvdan 10 chaqirim uzoqlikda joylashgan.

Qoravultepa kechuvi Naychi qishlog'i qarshisidagi chegarachilar posti yonida joylashgan bo'lib. kechuvda asosan afg'on qayiqchilari xizmat qilishgan. Kechuvda oqim tezligi sekundiga 7 fut bo'lib, asosan Afgonistonning qo'ylnarni va Buxorodan keltirilgan savdo-sotiq tovarlarini o'tkazishga xizmat qilgan. Afg'onistonning Xo'jaquvvat kechuvi Vaxsh daryosining Amudaryoga quylish joyidan 6 chaqirim pastda- Taxtaquvvat chegara postiga yaqin joyda joylashib, eni 1 chaqirim, oqim tezligi sekundiga 7 fut bo'lgan. Daryoning sayoz jyllari kechuvi qo'y va qoramol o'tkazishga xizmat qilgan, Kechuv Afg'onistonning Qunduz va Buxoroning Qabodiyon shaharlari o'rtasida joylashgan [7].

Ayvanch kechuvi - Amudaryoga quyladigan Kofirnihon daryosi chegara posti qarshisida bo'lib, eni 1 chaqirimcha, oqim tezligi sekundiga 6 futni tashkil etgan. Bu kechuv orqali Rossiya tovarlari Afg'onistoniga tashilib, Afg'onistonдан asosan qoramollar o'tkazilgan. Qirg'oqdan 2 chaqirim uzoqlikda Ayvanch: bojxonasi joylashgan, qadimda ushbu kechuvda ko'priq bo'lib, uning qoldiqlari saqlanib qolgan. Bu kechuv Buxoro xonligini Qabodiyon va Afg'onistonning Qunduz shaharlarni o'zaro bog'lab, savdo-sotiq ishlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ayrитом kechuvi-Afg'oniston chegara posti qarshisida bo'lib, uning eni 1 chaqirimdan ko'proq, oqim tezligi sekundiga 5 futni tashkil etgan, asosan qayiq orqali tovarlar tashishga xizmat qilgan. Keyinchalik ushbu kechuv o'z ahamiyatini yo'qtgan. Pattakesar kechuvi -Termiz istehkomi qarshisida joylashib, eni 2 chaqirimcha, oqim tezligi sekundiga 5 fut bo'lgan. Kechuvda asosan qayiqlar xizmat qilgan. Ushbu kechuvda kemalarning daryo oqimiga qarshi harakatida Pattakesar oxirgi nuqta bo'lganligi uchun bu yerda savdo aloqalari ancha rivojlangan. Bu kechuv Sharqiy Buxorobekliklari Sherobod, Denov, Boysun va Afg'onistonning Mozori - Sharif shaharlari o'rtasidagi savdo - sotiq, mol almashinuvida alohida o'r'in tutgan [8].

XULOSA

Buxoro xonligida yerga egalik qilish, undan foydalanish umuman yer-huquqiy munosabatlar shariat o'chovlariga asoslanib tartibga solingen. Yerga egalik qilish, undan foydalanishga ruxsat berish davlat boshlig'i xon ixtiyorida bo'lib, bekliklarda ushbu vakolatni viloyat hokimlari beklar amalga oshirganlar.

Shu bilan bir qatorda, yerga nisbatan davlatning egaligi va uning davlat boshlig'i tomonidan taqsimlanishi o'z navbatida, yerga nisbatan xususiy yer egaligi va undan xususiy foydalanishni inkor etmagan. Buxoro xonligida yerga nisbatan mulkchilikning huquqiy holatiga qarab quyidagi shakllarini ko'rsatib o'tish mumkin: davlat yerlari, shaxsan xonga tegishli bo'lgan yerlar; mulk yerlari; vaqf yerlari; jamoa yerlari.

Xonlik iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq va hunarmandchilik bo'lib, yer asosiy boylik hisoblangan. Shayboniyalar davrida mulkiy munosabatlarda aytarlik o'zgarishlar yuz bermadi. Dashti qipchoqdan kelgan o'zbeklar yer egaligi munosabatlarini boshidan kechirayotgan bo'lib, ular Movaraunnahrga yangi ishlab chiqarish munosabatlarini olib kelganlari yo'q, balki temuriylar davrida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy tizimni qabul qildilar, hamda unga moslashdilar. Shayboniyalar davrida ham iqtisodiy hayotda sun'iy sug'orish bilan bog'liq muammolarni hal etish ishiga jiddiy e'tibor bilan qaralgan.

Ta'kidlash joizki, Buxoro xonligida yerga egalik qilish, undan foydalanish umuman yer huquqiy munosabatlar shariat o'chovlariga asoslanib tartibga solingen. Yerga egalik qilish, undan foydalanishga ruxsat berish davlat boshlig'i xon ixtiyorida bo'lib, bekliklarda ushbu vakolatni viloyat hokimlari beklar amalga oshirganlar.

Dasht, qishloqlarda aholi asosan quduqlardan suv ichganlar, chorvani ham quduq suvi bilan sug'organlar. Quduq har bir hovlida bulmay to'pda. ba'zan butun bir qishloqda bitta yoki ikkita bo'lgan. Suv quduqdan chig'ir bilan tuya, ot va eshak yordamida tortib olingan. Denov Boysun, Ko'lob, Hisor, Qo'rg'ontepa, Sherobod bekliklaridagi Dashtig'oz, Batosh, Xo'jasoat, Uzun, Sariosyo, Bandixon:, Ovzikeng, Besherkak, Munchoq, Uzunquduq, egarchi, Yurchi, Yalti, Chuqrko'l, Tallashqon qishloqlari dasht qishloqridan hisoblangan. Keyingi vaqtarda dasht

qishloqlarining ko'pchilik aholisi oqar suvdan foydalanadigan qishloqlarga ko'chib o'tishgan. Voha aholisining uylari ikki xil ko'rinishda bo'lib, ular o'troq va yarim o'troq hayotga moslashgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мукминова Р.Г ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи.-Т.: 1994 й. (Mukminova RG and others. History of Uzbekistan.-T.: 1994.)
2. Мукминова Р.Г., Бабабеков Х.Н.и др. История Узбекистана. Том-3.-Ташкент: 1993 г. (Mukminova R.G., Bababekov H.N.i dr. History of Uzbekistan. Tom-3.-Tashkent: 1993.)
3. Файзиев Т. Бухоро феодал жамиятида қуллардан фойдаланишга доир хужжатлар.-Т.: Фан,1990 й. (Fayziev T. Documents on the use of slaves in the feudal society of Bukhara.-T.: Science, 1990.)
4. Асқаров А. «Ўзбекистон халқлари тарихи» 2-том. 1994 й. (Askarov A. "History of the Peoples of Uzbekistan" Volume 2. 1994)
5. Каримов Ш. Шамсиддинов э. «Ватан тарихи».-Т. 1-том, 1997й. (Karimov Sh. Shamsiddinov e. "History of the Motherland".-T. Volume 1, 1997.)
6. Ҳофиз Таниш Бухорий, Абдулланома, 1—2 жиллар,-Т., 1999, 2000; (Hafiz Tanish Bukhari, Abdullanoma, volumes 1-2, T., 1999, 2000;)
7. Мир Муҳаммад Амин Бухорий, Убайдулланома,-Т., 1957; (Mir Muhammad Amin Bukhari, Ubaidullanoma, T., 1957;)
8. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти, 1қисм,-Т., 2000. (History of Uzbekistan: development of the state and society, part 1, T., 2000.)